

Barcha maqsad va harakatlarimiz xalqimiz farovonligi, farzandlarimiz kelajagi, vatanimiz tinchligini ta'minlashga qaratilgan



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi islohotlar, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishish maqsadida 17-oktyabr kuni Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurdi.

Viloyatni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturiga asosan joriy yilning 9 oyida 575,2 milliard soʻmlik 263 loyihani ishga tushirish rejalashtirilgan. Oʻtgan davrda 696 milliard soʻmlik 329 ta loyiha hayotga tatbiq etilib, 2 ming 523 ta ish oʻrni yaratildi. 122 ming 750 dollarlik sanoat mahsulotlari, meva-sabzavot, poliz va boshqa mahsulotlar eksport qilindi.

Joriy yilning 9 oyida oʻtgan yilning shu davriga nisbatan yalpi hududiy mahsulot 5,8 foiz oʻsdi. Sanoat mahsulotlari hajmi 7,3, qishloq xoʻjaligi 3,4, xalq isteʼmoli mollari 6,8, xizmat koʻrsatish 11,1 foizni tashkil etdi. Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 79,8 foizga yetdi.

Prezidentimiz Surxondaryo viloyatiga bu galgi safarini anʼanaga koʻra Hakim Termiziy maqbarasi ziyoratidan boshladi.

Keyingi yillarda taʼmirlanib, yanada obod va goʻzal majmuuga aylangan ushbu tabarruk maskanda Qurʼon tilovat qilindi.

Ulamolar bilan boʻlib oʻtgan suhbatda Islom dini rivojiga ulkan hissa qoʻshgan buyuk alloma Hakim Termiziyning maʼnaviy-maʼrifiy merosini chuqur oʻrganish hamda yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik oʻrtasida keng targʻib qilish haqida soʻz yuritildi.

Mamlakatimizda soʻnggi yillarda milliy qadriyatlarimizni tiklash, muqaddas dinimizni, buyuk allomalarimizning boy merosini oʻrganish, ularning qadamjolarini obod qilish, tarixiy obidalarni asrab-avaylash yoʻlida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Imom Buxoriy va Imom Termiziy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Islom sivilizatsiyasi markazi, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi. Ulugʻ ulamolarning nomlari bilan atalgan diniy majmualar, jomeʼ masjidlari, ilmiy markazlar bunyod etildi.

Davlatimiz rahbari jamiyatimizda mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, bilib-bilmay

adashganlarni afv etib, to'g'ri yo'lga qaytarish, ularning hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish, bu borada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Surxondaryo viloyati turli qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda boy tajribaga ega. Fermer xo'jaliklarining 1 ming 797 tasi paxtachilik-g'allachilik, 1 ming 962 tasi bog'dorchilik-uzumchilik, 84 tasi sabzavotchilik va polizchilik, 43 tasi g'allachilik-sabzavotchilikka ixtisoslashgan. 888 fermer xo'jaligida chorva mollari parvarishlanmoqda.

Joriy yilda viloyat pillakorlari 1 ming 627 tonna sifatli xomashyo tayyorladi. 93 ming gektar maydondagi g'alladan 532,5 ming tonna hosil yig'ib olinib, 301 ming 216 tonnasi davlat qabul punktlariga topshirildi. Pilla va don ishlab chiqarishdan 649,5 milliard so'm daromad qilinib, 157 milliard so'm sof foyda olindi. Hosildan bo'shagan maydonlarga takroriy ekin parvarishlashdan 2 trillion 375 million so'm daromad qilish mo'ljallanmoqda.

Viloyatda 17 ming 181 gektar maydonda meva, 13 ming 300 gektarda uzum yetishtiriladi. Hozirgacha 114 ming 700 tonna meva, 83 ming 300 tonna uzum olindi.

Joriy yilda viloyat paxtakorlari ham salmoqli hosil yetishtirdi. Ayni kunlarda meva-sabzavot, uzum, poliz va boshqa ziroatlarni yig'ishtirib olish barobarida paxta hosilini yog'in-sochinli kunlarga qoldirmay yig'ib olishga alohida e'tibor berilmoqda. Hozirgacha topshirilgan 80 foiz paxta hisobidan 817 milliard so'm daromad olinib, 96 milliard so'm foyda ko'rilgani, mavsum yakunigacha bu ko'rsatkich 135 milliard so'mdan oshishi kutilayotgani paxtakorlarni yanada unumli mehnat qilishga undamoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Angor tumanidagi "Angor Surxon g'ururi" paxta-to'qimachilik klasteri dalasida paxta hosilini ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari 2018-yil yanvarda viloyatga safari chog'ida paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar bergan edi. Shu asosda Surxondaryoda 6 ta to'qimachilik klasteri tashkil etildi. Ular jami paxta maydonining 67 foizdan ziyodini qamrab olgan. 2020-yilda bu ko'rsatkichni 100 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Klaster tizimi sohaga zamonaviy texnologiyalar va innovatsion ishlanmalarni joriy qilishda muhim omil bo'lmoqda. "Angor Surxon g'ururi" mas'uliyati cheklangan jamiyatida ham yangi ish uslubi asosida hosildorlik va mahsulotlarning raqobatbardoshligi oshirilmoqda. Ushbu klasterning jami maydoni 9 ming 180 gektar bo'lib, uning 8 ming 100 gektaridan ko'prog'iga ekin ekiladi. Jumladan, bu yil qariyb 5 ming gektar yerda ingichka tolali paxta yetishtirilgan.

Yurtimiz olimlari tomonidan yaratilgan g'o'zaning "Surxon-14", "Surxon-16" navlari ikki yil mobaynida tajribadan o'tkazildi. Ingichka tolali bu nav turli ob-havo sharoitlariga, suvsizlik, garmsel va zararkunda hasharotlarga chidamliligi, ertapisharligi bilan ahamiyatli. Tolasining uzunligi, pishiqligi, tekstilbopligi jahon bozorida xaridorgir hisoblanadi. Boshqa navlar bilan mehnat va resurs sarfi bir xil bo'lgani holda ingichka tolaning iqtisodiy samaradorligi 60 foiz ko'p.

– Biz yerimizga sarflanayotgan xarajatga nisbatan kam hosil olyapmiz. Nav bilan, ilmiy agrotexnika bilan shug'ullanmay qo'ygandik. Mehnat unumdorligi, manfaatdorlik past edi. Aslida yerga mehr bergan inson boy bo'lishi kerak. Bizning maqsadimiz shu. Ilm bo'lmasa, rivojlanish bo'lmaydi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident ingichka tolali g'o'za navlarini ko'paytirish va ekin maydonlarini kengaytirish, olimlarni rag'batlantirish bo'yicha topshiriqlar berdi. Klasterlar faoliyatini rivojlantirish istiqbollari to'g'risida so'z yuritildi.

– Endi hamma klasterlar chorvachilik komplekslari tashkil qiladi. Chunki ularda ozuqa bazasi bor. Chorvachilik rivojlansa, go'sht, sut arzon bo'ladi. Bu xalqimiz farovonligi, bolalarimiz salomatligi uchun muhim, – dedi davlatimiz rahbari.

Bugungi kunda klasterda 900 dan ziyod ishchi va mutaxassis mehnat qilmoqda. Kelgusida qayta ishlashni kengaytirish hisobidan yanada ko'p ish o'rni yaratish rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Denov tumanidagi Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugiga qarashli harbiy qismda bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining topshirig'iga muvofiq, Mudofaa vazirligi barcha harbiy qism va muassasalarining shtat turkumlari, shaxsiy tarkibi tubdan takomillashtirilmoqda.

Mazkur harbiy qism ham 2018-yildan aralash harbiy qism tarkibida faoliyat yuritmoqda. Bu yerda muddatli harbiy xizmatchilar 21 yo'nalishdagi mutaxassislik bo'yicha tayyorlanadi. Qismda harbiy xizmatchilar uchun barcha sharoit yaratilgan. Jumladan, bir vaqtning o'zida 500 dan ortiq harbiy xizmatchi amaliy va nazariy mashg'ulot o'tashi imkonini beruvchi 3 qavatli o'quv binosi, 6 ta yotoqxona, zamonaviy sport majmuasi, oshxona qurildi. O'quv binolaridagi kompyuter xonalari, elektron kutubxonada harbiylarning zamonaviy bilim va ilg'or ko'nikmalarni egallashi, o'z ustida muntazam ishlashi uchun zarur imkoniyatlar yaratildi.

Mudofaa vazirligi va viloyat harbiy-ma'muriy sektori tomonidan harbiy xizmatchilarning oila a'zolariga shart-sharoit yaratish maqsadida joriy yilda harbiy shaharchada 64

xonadonli 4 ta ko'p qavatli uy, nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi qurilib, foydalanishga topshirildi.

Davlatimiz rahbari harbiy qismdagi sharoitlar, yangi tashkil etilgan bo'linmalar, askarlar va harbiy xizmatchilarning o'quv faoliyati bilan tanishdi.

Saf maydonida Oliy Bosh Qo'mondonga muddatli harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligiga bag'ishlangan ko'rgazmali mashg'ulotlar namoyish etildi. Prezidentimiz harbiy texnika va qurol-aslahalar namunalarini ko'zdan kechirdi.

Harbiylar bilan muloqotda Prezidentimizga Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugiga qarashli harbiy qismlarni zamonaviy texnika va qurol-aslaha bilan ta'minlash, qo'shinlarning boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish, mazkur qismda jangovar va o'quv-tayyorgarlik jarayonini avtomatlashtirishga doir loyihalar haqida ma'lumot berildi.

– Harbiylar xalqimizning ma'naviy yetuk farzandlari bo'lishi kerak. Buning uchun shaxsiy tarkibning ma'naviy yetukligini, harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini yuksaltirish lozim. Siz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimiz vorislari ekaningizni doim his qilib, shunga munosib xizmat qilsangiz, yoshlarimiz vatanparvarlik, ona yurtga sadoqat tuyg'ularini sizlardan o'rganadi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident askar va ofitserlarning jangovar shayligini oshirish, yashash va dam olish sharoitini yaxshilash, ularni uy-joy bilan ta'minlash borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish lozimligini ta'kidladi. Joylardagi harbiy-ma'muriy sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirish zarurligi qayd etildi. Harbiy qurilish tizimini takomillashtirish, askarlarning ma'naviyatini oshirish bo'yicha dastur ishlab chiqish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Shavkat Mirziyoyev Denov tumanida harbiylarning farzandlari uchun qurilgan nodavlat bog'chaga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan maktabgacha ta'lim tizimini yuksaltirish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Joylarda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olish maqsadida davlat-xususiy sheriklik asosida zamonaviy bog'chalar qurilib, foydalanishga topshirilmoqda.

Surxondaryo viloyatida o'tgan yili 288 maktabgacha ta'lim muassasasida 3-7 yoshli bolalarning 11,6 foizi qamrab olingan bo'lsa, ayni paytda 355 ta davlat va 177 ta nodavlat bog'chada jami bolalarning 24,3 foizi tarbiyalanmoqda. Yil oxirigacha bu ko'rsatkichni 32,3 foizga yetkazib, 74 ming o'g'il-qizni zamonaviy bog'chalarga

qamrab olish rejalashtirilgan.

Denov tumanidagi Bog'ni Eram mahallasida "Mehnat farovon hayot" fermer xo'jaligi tomonidan 150 o'rinli "Smart kids" nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi barpo etildi. Ikki qavatli mazkur bog'cha chet tillarga ixtisoslashgan bo'lib, bolalar ingliz, rus va koreys tillari bo'yicha beshta guruhda tarbiyalanadi. Bundan tashqari, sport, musiqa va san'at to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasasida asosan harbiy shaharchada yashayotgan harbiylarning, shuningdek, yon atrofidagi aholi farzandlari tarbiyalanmoqda. Bog'chaga ishga qabul qilingan 22 tarbiyachining 14 nafari harbiylarning turmush o'rtoqlaridir.

Davlatimiz rahbari bog'chadagi sharoitlarni ko'zdan kechirdi, tarbiyachilar bilan muloqot qildi. Tarbiyalanuvchilar besh tashabbus haqida she'r aytib berdi. Prezidentimiz bolalarga sovg'alar topshirdi.

– Tadbirkorlarimizning sharoitni tushunib bog'chalar qurayotgani hozirgi siyosatimizga ko'mak, – dedi Shavkat Mirziyoyev. – Bunday bog'chalar asosiy e'tiborni bola tarbiyasiga qaratadi, davlat bog'chalari bilan raqobatda ishlaydi.

Shu yerda Maktabgacha ta'lim vazirligi va "O'zavtosanoat" aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan mobil va modul bog'chalar taqdimoti o'tkazildi.

Ma'lumki, olis va chekka hududlardagi kam xonadonli aholi punktlarida bog'cha qurish o'zini oqlamaydi. Shuni hisobga olib, mobil bog'chalar taklif qilinmoqda. Buning uchun "Isuzu" avtobusi bog'cha xonasi ko'rinishida modernizatsiya qilinib, jihozlandi. "Aqlvoy" deb nomlangan mobil bog'chalar chekka hududlarga borib, bolalarga kunduz kuni ta'lim-tarbiya beradi. Yana bir jihati, mobil bog'chalar uchun 2 sotix yerda o'yin maydonchasi barpo etiladi. Bu bolalarga an'anaviy bog'chalardagidek sharoitda tarbiyalanish imkonini beradi.

Dengiz konteynerlaridan qurilgan modul bog'chalarda 90 nafargacha bolani qamrab olish mumkin. Bunday bog'chalar sirti issiq va sovuq o'tkazmaydigan material bilan qoplangan, ichida ham zamonaviy sharoitlar hozirlangan. Bolalarga ta'lim berish metodikasi, mashg'ulotlar o'tkazish uchun yaratilgan qulayliklar chet el tajribasiga to'la mos keladi.

Yangi loyihalarni maktabgacha ta'lim tizimida keng yoyish, mamlakatimizda bog'chalar qamrovini kelasi yilda 50 foizga yetkazish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Shavkat Mirziyoyev Denov tumanidagi loyiha qiymati 20 million dollar bo'lgan "Denov tekstil" paxta-to'qimachilik klasterida bo'lib, uning imkoniyatlari bilan tanishdi.

Prezidentimiz avvalgi tashriflari chog'ida Surxondaryo viloyatida paxtani to'liq klaster usulida yetishtirish, har bir tumanda zamonaviy klasterlar tashkil etish zarurligini ta'kidlagan edi. Ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samarali bo'lgan bunday tizim joriy yildayoq real natijalarini bera boshladi.

Ayni paytda korxonaning birinchi bosqichi ishga tushirilib, klaster usulida ip-kalava tayyorlanmoqda. Yiliga 6 ming 300 tonna ip-kalava tayyorlash quvvatiga ega korxonada joriy yilning to'qqiz oyida 46,7 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Korxonada ikkinchi bosqichda tikuvchilik liniyasi tashkil etilib, eksportga yo'naltirilgan tayyor trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi, 300 dan ortiq xotin-qiz doimiy ish bilan ta'minlanadi.

Loyihaning uchinchi bosqichida matoni bo'yash va pardozlash korxonasi ham ishga tushiriladi, unda yiliga 5 million pogonmetr gazlama ishlab chiqariladi.

2020-yilda viloyatda qiymati 107 million dollarlik ana shunday 10 ta klaster ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Shunday chora-tadbirlar natijasida kelasi yilda viloyatda paxta tolasini 100 foiz shu yerning o'zida qayta ishlashga erishish mo'ljallanmoqda.

Davlatimiz rahbari qishloq xo'jaligida klaster tizimining ahamiyatiga alohida to'xtaldi. Har bir klaster qoshida 10 ming bosh qoramol boqiladigan chorvachilik majmualari tashkil etish bo'yicha topshiriq berdi. Bu go'sht narxi asossiz ravishda oshib ketishining oldini oladi.

– Bunday ishlarni tezlashtirish kerak. Har bir joy, har bir yer odamlarni boqishi kerak, – dedi Shavkat Mirziyoyev. – Bunday sanoat korxonalari aholini ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoya kabi masalalarga ham yechim bo'ladi.

Shu yerda 2019-2021-yillarda viloyatda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish, Denov shahri bosh rejasi hamda kelgusi ikki yilda Denov tumanini obod qilish bo'yicha loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

72 mingdan ziyod aholi yashaydigan Denov shahri yanada kengayib, 2030-yilda uning maydoni 2025 gektarga, aholisi 90 mingga yetadi. Yangi rejaga muvofiq eski, ko'rimsiz ko'cha va binolar o'rniga zamonaviy ko'p qavatli uylar, maktab va bog'chalar, amfiteatr, xiyobonlar quriladi. Shahar markazidagi 17-asrga oid "Said otaliq" madrasasi va qal'a joylashgan hududda hunarmandchilik markazi barpo etiladi. Qizilsuv daryosi qirg'oqlarida dam olish maskanlari tashkil qilinadi.

Prezident bu boradagi bunyodkorlik ishlarini tezlashtirish, odamlar uchun har tomonlama qulay uy-joylar qurish zarurligini ta'kidladi.

Bog'dorchilik, uzumchilik klasterlari tashkil etish, sabzavotchilik, logistika markazlari qurishga qaratilgan loyihalar iqtisodiy tahlillarda bayon etildi. Endilikda viloyatda "bir mahalla – bir mahsulot" tamoyili asosida fermerlikni rivojlantirish, aholini arzon va sifatli oziq-ovqatlar bilan taminlash harakati boshlanadi.

Angorda aholi tomorqalari tadbirkorligini rivojlantirish, Uzun tumanidagi don klasteri, shuningdek, viloyatda tashkil etiladigan g'allachilik klasterlari haqida so'z yuritildi. Sho'rchi tumanida "Chinoz tekstil" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan amalga oshiriladigan loyihalarni ko'zdan kechirdi.

Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan xalqaro konsultativ kompaniya ko'magida yurtimiz dalalarida yetishtirilgan meva-sabzavotlar hosili, eksport salohiyati, jahon bozoridagi talab va taklifni o'rganish tahlillarda bayon etildi. Surxondaryo iqlim sharoitidan kelib chiqib, qishloq xo'jaligida ertapishar, eskportbop ekin turlarini ko'paytirish lozimligi qayd etildi. Xususan, limon ekishni ko'paytirish borasida aniq topshiriqlar berildi.

O'tgan yili Sherobod tumanida sement zavodi ishga tushirilgan edi. Bu yil Jarqo'rg'on tumanida "Surxonsementinvest" xorijiy korxonasi barpo etildi. Bu yerda Germaniya, Avstriya, Rossiya va Xitoydan keltirilgan zamonaviy texnologiya va uskunalar o'rnatildi.

Loyiha qiymati qariyb 144 million dollar bo'lgan korxonaning birinchi bosqichi yakunlangan. Zavod to'liq quvvat bilan ish boshlagach, yiliga 1,1 million tonna sement ishlab chiqarilib, uning 750 ming tonnasi eksport qilinadi, 1 125 kishi ish bilan ta'minlanadi.

Prezident ushbu zavod bilan tanishdi.

– Surxondaryo viloyatining iqtisodiy imkoniyatlari juda katta. Bu yerda yerosti boyliklari ko'p. Mendeleyev davriy jadvalidagi deyarli barcha elementlar bor. Bundan oqilona foydalanishimiz, xalqimiz manfaati uchun ishlatishimiz kerak, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shuningdek, kelgusida 12 million dollardan ziyod investitsiya jalb qilish orqali quruq qurilish aralashmalari, gidratlangan ohak, temir-beton mahsulotlari ham tayyorlash rejalashtirilgan.

Shu yerda viloyatda sanoat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ichimlik va oqova suv tizimlarini yaxshilash, qurilish materiallari ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirishga qaratilgan loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

babcd0e6-f94f-b5da-71de-11fddb9668f0.jpg

Viloyatga biriktirilgan elchixonalar tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari

haqida ham ma'lumot berildi. Unga ko'ra, Avstriya, Yaponiya, Afg'oniston va Tojikiston bilan hamkorlikda viloyatda 2020-2021-yillarda 90,2 million dollarlik 47 ta istiqbolli investitsiya loyihasi amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Viloyatning har bir tumanida 9-12 qavatli uylar qurish, Denov tumani iqtisodiyotini rivojlantirish, tumanda erkin iqtisodiy zona tashkil etish, viloyat eksport salohiyatini oshirish, ko'proq investitsiyalar jalb qilish bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar berildi.

O'ZA